

ALISHER NAVOIY IJODI

Xolnazarova Gulnora Fayzullayevna

*Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 14-umumiy o'rta ta'lim
maktab o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8082782>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, "Majolis un-nafois"da badiiy mahorat masalasi, kitoblari Turk tilining rivojlanishiga qo'shgan hissasi, shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi hamda muayyan bir g'oyani ilgari suradi. Aynan shu sababli, bir mavzu doirasidagi asarlarni qiyosiy tahlil etishda, har ikki ijodkorning mushtarak yoxud xos jihatlarini ko'rsatish bosh mezon bo'lgani haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Sharq adabiyoti, "Majolis un-nafois", tanqidchi, tilchi, mushtarak.*

Kirish qismi:

"Majolis un-nafois"da badiiy mahorat masalasiga ancha e'tibor berilgan. Tanqidchi kitobda keltirilgan misollar va har bir shoirniig zikri orqali she'riyat xodimlari oldiga badiiy mahoratni oshirish, buning uchun esa tinmay ijodiy mehnat qilish kerakligi talabini qo'yadi. Navoiy badiiy jihatdan pishiq asar yaratish uchun shoirniig keng ma'lumotli, san'atning boshqa turlari bilan tanish bo'lishi kerakligini ham uqtiradi.

"Majolis un-nafois"da shoirlarga tavsif berishda ulardan ba'zi birlarining musiqa, xattotlik, rassomlik, naqqoshlik san'atlariga aloqadorligini ham qayd qilgan. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, Navoiy u yoki bu shoirning yuqorida tilga olganimiz san'atlar bilan mashg'ul bo'lishini samimiyat bilan ma'qullaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Navoiy adabiyotning san'atning boshqa turlari bilan aloqada bo'lishini, xususan she'riyatning musiqa bilan bog'lanishi natijasida uning ta'siri yanada kuchayishini tushungan. Ma'lumki, Navoiyning o'zi faqat shoir, olim va yozuvchigina emas edi, balki san'atkor, aniqrog'i mohir musiqachi va bastakor ham edi. U zamonasining mashhur san'atkori Xoja Yusuf Burhondan musiqani chuqur o'rgangan edi. Shuning uchun Navoiy o'zining badiiy qarashlarida she'riyat bilan shug'ullanuvchi kishilarni san'atning faqat bir tarmog' bilan cheklanib qolmaslikka, musiqani va shunga o'xshashlarni o'rganishga da'vat etadi. Ana shu qoidaga amal qilgan shoirlarni esa alohida ta'kidlab o'tish bilan ularni boshqalarga namuna qilib ko'rsatadi. Bu jihatdan uning Mavlono Sohib Balxiy, Mavlono Binoiy, Xoja Yusuf Burhon va boshqalar haqida yozganlari diqqatga sazovordir. Masalan: "Mavlono Sohib Balxiy bovujudi she'r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi va o'z g'azallarini o'z amallarig'a boglabdurkim, aning fazoyilig'a dalolat qilg'ay", yoki Xoja Yusuf Burhon haqida gapirib, "ko'proq o'z she'riga musiqiy bog'lab erdi", deb yozadi.

Demak, "Majolis un-nafois" XV asrda zamondoshlarga bagishlangan tazkirachilik an'anasini rivojlantirgan asar bo'lib, shu davr adabiy va madaniy hayotini o'rganishda qimmatli manbalardan biridir. Ikkinchi tomondan, "Majolis un-nafois"da Alisher Navoiyning badiiy aqidalari, shaklparastlikka qarshi keskin kurashi, san'atning turli tarmoqlari o'rtasidagi munosabatini tushunishi va shu kabi qator masalalar o'z aksini topgan. Shuning uchun bu asarning ahamiyati tazkira doirasidan ancha kengdir.

"Majolis un-nafois" XV asr ikkinchi yarmidagi adabiy muhitni keng qamrab olganligi va unda zullisonayn-turkigo'y hamda forsigo'y shoirlar haqida ma'lumot berilgani tufayli u o'sha davrning uzida katta qiziqish uyg'otdi. Natijada forsigo'ylarning ham undan

bahramand bo`la olishlari nazarda tutilib, XVI asrning yigirmanchi yillaridayoq fors-tojik tiliga ilovalar bilan tarjima qilindi. Bunday tarjimaning biri 1521-1522 yilda Hirotda Sulton Muhammad Faxriy Hirotiy tomonidan amalga oshirilib, "Latoifnoma" deb atalgan bo`lsa, ikkinchisi 1522-1523 yilda Istambulda Muhammad Hakimshoh G`azviniy tomonidan bajarildi. XVI asrning oxirlarida Shoh Ali ibn Abdulali degan muallif ham "Majolis un-nafois"ni fors-tojik tiliga o`g`irgan. Keyingi davrdagi ma`lumotlarga ko`ra, "Majolis un-nafois" XVIII asrda Hindistonda yashagan Abdulboqi Sharif Ramazoniy tomonidan to`rtinchi marta fors tiliga tarjima qilingan ekan.

Ko`rinadiki, "Majolis un-nafois" XVI-XIX asrlar davomida turkiy-o`zbek va forsiy tilda Sharqda keng tarqalgan muhim manbalardan hisoblanib, uning ma`lumotlaridan foydalanish, asarda qo`llanilgan an`analarni davom ettirib, o`zbek, tojik, ozarbayjon, fors tillarida tazkiralari yaratish holati ko`zga tashlanadi.

Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim va tanqidchi sifatidagi faoliyati haqida so`z borganda uning "Mezon ul-avzon"i ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu asarda Navoiy o`zbek adabiyotshunosligi tarixida birinchi bo`lib aruz va uning qonun-qoidalarini to`g`risida so`z yuritdi. Bu masalani Navoiyning o`zi ham alohida ta`kidlab, shunday yozadi:

"G`araz bu maqolotdin va maqsad bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim, nazm voqe` bo`lubtur, anga zobitae va qonune yo`q erkondur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fannida kitobe yo risolae bitmaydur... bu sababdin bu ilm zobitasiga salam suruldi". Shuni ta`kidlash lozimki, Navoiygacha va uning zamonida arab va fors-tojik she`riyati asosida aruzning xususiyatini yorituvchi ko`pgina risolalar mavjud bo`lib, Navoiy ulardan yaxshigina xabardor edi. Shuning uchun "Mezon ul-avzon"ning kirish qismida arab adabiyotshunosi Xalil ibn Ahmad, "ilm ustodi Qays" (Shamsiddin Qays Roziy), Xoja Nasir Tusiy va Abdurahmon Jomiylarning bu sohada xizmatlari eslatib utilgan. Ammo Navoiyning bu masalada o`tmish ustodlaridan farq qiluvchi xizmati shundan iboratki, u turkiy, xususan o`zbek tilida yaratilgan she`riyat tajribasi asosida aruz qonun-qoidalarini bayon etdi va shuning bilan birga, turkiy xalqlar she`riyatiga xos bo`lgan she`riy shakl va vaznlarni ham birma-bir ta`riflab berdi. Natijada Navoiy bu ishi bilan faqat adabiyot tarixi masalalaridan so`z yuritgan adabiyotshunos bo`lib qolmadi, balki turkiy she`riyat nazariyasiga doir kuzatishlarini ham umumlashtirishga erisha oldi.

Demakki, bu sohada ham Navoiy tadqiqotchi sifatida faoliyat ko`rsatib, o`zidan oldingi mualliflar va zamondopshari tomonidan yaratilgan aruzga doir risolalarda bo`lmagan ma`lumotlar va xulosalarini kiritdi. Bu jihatdan uning asar oxiridan o`rin olgan tuyug, chinga (changiy), muhabbatnoma, orzuvoriy, turkiy shidagi mulohazalari diqqatga sazovordir. Chunki ular aslida turkiy xalqlar og`zaki ijodining mahsuli bo`lib, Navoiydan oldin hech bir aruz risolasiga kiritilmagan edi. Navoiy kuzatishlarida bu misollar keltirilishining ahamiyati shundaki, ularda yozma adabiy janrlarning xalq og`zaki ijodi janrlari bilan o`zaro aloqasi xususida so`z boradi.

Alisher Navoiyning turkiy va forsiy she`riyat, uning zabardast namoyandalari ijodidagi mulozhazalari hamda o`z asarlari to`g`risida yozganlari "Muhokamat ul-lug`atayn"da ham uchraydi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, Alisher Navoiy salafarlari va zamondoshlari haqida juda muxtasar tarzda so`z yuritisa-da, ammo har bir shoir ijodining o`ziga xos xususiyatlarini, qaysi janrda qobiliyatlarini ko`rsata olganliklarini mahorat bilan belgilaydi. Jumladan, u XIV asrning mashhur shoiri Salmon Sovajiy haqida shunday yozadi:

"Suxanpardoz ustozli oliyshon Xoja Kalimiddin Salmon, qasida maydonining chobuksavoridur va o`z zamonining benazir suxanguzori, mashhurdurki, chun masnu qasidasi tartibiga qalam surubtur, o`n sakkizda itmom yetkurubdur. Voqyea ishe

qilibdurki, nazm ahli aning taammuqida hayron va taammulida sargardondur-lar". Yoki, "Hazrati Shayx Muslihiddin Sa'diy... g'azal tavrı muxtareidur", "masnaviyda ustozı fan Firdavsiy va nodiri zamon Shayx Nizomiy va jodui Hind Xusrav..." Turkiy tilda she'r bitishda Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Otoyı, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiylar maydonga kelgan bo'lsalarda, Mavlonı Lutfiyning alohida mavqyega ega ekanligi ham uqtiriladi.

Demak, bu asarda Navoiy faqat tilshunos olim emas, balki adabiyotshunos sifatida ham ko'zga tashlanadi.

Xulosa qismi:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning ijodi shunday ijodki "Obi Zamzam" suvi kabi totlidir. Uni qancha kôp ôqisakda uning asarlariga tôymaymiz.

Bugungi kunda 7 yoshdan boshlab 70 yoshgacha bôlgan yoshlar orasida Alisher Navoiyni tanimaydigan inson topilmaydi. Hamma uning asarlarini sevib ôqiydi. Yanada kôproq Navoiy ijodiga yoshlarni jalb etish hamda u kabi buyuk shaxslarni yetishtirib chiqarishni xulosalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy asarlari. 15 tomlik, 14-tom G'fur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.-T.1967, 127-bet.
2. Ko'rsatilgan asar. 125-128-bet.
3. B. Valixojayev. O'zbek adabiyotshunoslik tarixi. Toshkent "O'zbekiston" 1993.